

O‘ZBEKISTONDA TURKLAR DIASPORASI; TARIXI VA BUGUNGI HAYOTI

Abdurahimov Orifxon Shokir o‘g‘li,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistratura 2-bosqich talabasi

abdurahimovorifxon@gmail.com

+99899 406-02-17

Ilmiy rahbar: Phd, dots. B.A. Odilov

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada O'zbekiston va turkiya orasidagi yaqin aloqa ularning diasporasi; tarixi va hozirgi kunda hayot tarzi haqida keng ma'lumot berib o'tamiz. Qolaversa hozirgi kunda ikki davlat orasida bo'ladigan moddiy va ma'naviy munosabatlar haqida yozilgan

KALIT SO‘ZLAR: mustaqillik, munosabat, elchilik, iqtisodiyot, arxiv, strategik aloqalar

ANNOTATION:

In this article, the close connection between Uzbekistan and Turkey is their diaspora; we will provide extensive information about its history and lifestyle today. In addition, it is written about the material and spiritual relations between the two countries

KEY WORDS: independence, attitude, embassy, economy, archive, strategic relations

Turkiya haqida gap ketganida, xalqimiz doimo minnatdorlik bilan esga oladigan bir haqiqat bor: O‘zbekistonimizni jahon maydonida mustaqil davlat sifatida birinchi bo‘lib tan olgan davlat aynan Turkiya dir. “Jigar — jigar, digar — digar”, deganlaridek, yosh mamlakatimiz xalqaro munosabatlar dunyosiga qadam qo‘yar ekan, avvalo, azaliy qardoshimiz Turkiya chin dildan qutlab qarshi olganini xalqimiz, Vatanimiz hech qachon unutmaydi.



Bir turk professori o‘zaro suhbatimizda qiziq gapni aytgan edi: “Bilasizmi, Turkiya 350 mingdan ko‘proq qo‘lyozma asarlar merosi bilan bu borada dunyoda birinchi o‘rinda turadi, lekin bu meros o‘zbek qardoshlarimizniki ham hisoblanadi. Chunki ushbu qo‘lyozmalarning aksariyati yoki Movarounnahr ulamolarining asarlari yoxud ularga bitilgan sharhlardan iborat...”.

Haqiqatan ham, Turkiyadagi qo‘lyozma fondlari tadqiq qilinsa, Buxoriy, Nasafiy, Xorazmiy, Farg‘oniy kabi nisbali allomalarimizning o‘n minglab asarlari topiladi. Bu ham — asrlar osha mamlakatlarimiz o‘rtasida davom etgan siyosiy-diplomatik, ilmiy-ma‘naviy munosabatlarning yorqin dalili. Masalan, Turkiyaning davlat arxivida Usmoniylar va yurtimiz hududidagi xonliklar o‘rtasidagi izchil diplomatik yozishmalar, elchilik hay‘atlari almashinuvi, Onado‘liga kelgan o‘zbeklar haqida kamida 500 ta tarixiy hujjat mavjud. Ular o‘zaro munosabatlارimiz naqadar teranligini ochiq-oydin ko‘rsatib turibdi. Usmoniylar davlatida faoliyat ko‘rsatgan “O‘zbek takyalari” (O‘zbek tekkeleri) qaysidir ma‘noda mamlakatimizning Onado‘lidagi ilk konsulxonalar edi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Turkiyada yangi boshqaruv tizimi o‘rnatilgan bir davr — o‘tgan asrning 20-yillari ham diplomatik munosabatlارimiz tarixida muhim o‘rin tutadi. Qariyb 100-yil avval Buxoro Respublikasidan kelib, Mustafa Kamol Otaturkka Istiqlol urushida g‘alaba tilagan va ma‘naviy jihatdan qimmatli hadyalar bergan o‘zbek hay‘ati haqidagi ma‘lumotlar Turkiya Buyuk Millat Majlisining hujjatlarida muhrlangan. Darvoqe, 1921-yil qabul qilingan va har bir turk fuqarosi yuksak g‘urur bilan aytadigan Turkiya Davlat madhiyasi — Istiqlol marshining muallifi buxorolik o‘zbek ayolining farzandi Mehmet Akif Erso‘ydir. Yana bir jihat: Turkiya Prezidentining shtandartida aks etgan 16 yulduz — tarixdagi buyuk turkiy imperiyalarni, jumladan, yarmidan ko‘prog‘i bizning zaminimizdagi davlatlarni ifoda etadi. Eng muhimi, ushbu 16 yulduz ham Turkiyaga ko‘chib o‘tgan vatandoshlarimizdan biri — Akib O‘zbekning taklifi bo‘lib, turk rasmiylari tomonidan qabul qilingan.

O‘zbekiston va Turkiya diplomatik munosabatlارining 30 yilligiga umumiy nazar tashlaydigan bo‘lsak, hech shubhasiz, so‘nggi 5 yil aloqalarimiz tarixidagi eng yorqin sahifa bo‘lib g‘avdalanadi. 2017-yilning oktyabr oyida muhtaram Prezidentimizning Turkiyaga amalga oshirgan rasmiy tashriflari ko‘p jihatdan ushbu tarixiy sahifaning ochilishi bo‘ldi. 21 yillik tanaffusdan so‘ng eng oliy darajada



Turkiyaga amalga oshirilgan mazkur tashrifda 22 ta yangi bitim imzolandi. Prezidentlar o‘zaro munosabatlarning strategik darajaga ko‘tarilganini alohida ta’kidladilar. Darvoqe, strategik aloqalarimizning asoslari o‘rnatilgan ushbu tashrifga bu yil 5 yil to‘lishini alohida qayd etish zarur.

Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki, bevosita davlat rahbarlari o‘rtasida qaror topgan yaqin do‘stlik va samimiy birodarlik vazirlik va kompaniyalar, davlat tashkilotlari va muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. O‘tgan besh yilda Bosh vazir o‘rinbosari va vazirlar darajasida — o‘nlab, tashkilot-muassasalar va hokimliklar darajasida esa — yuzlab delegatsiyalarning o‘zaro tashriflari amalga oshirilib, hamkorlik va tajriba almashinuv bo‘yicha aniq va salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Albatta, o‘zaro uchrashuvlarda turk birodarlarimizning ko‘plab sohalarda taraqqiyot borasida ancha ilgari ketganini payqash mushkul emas. Qariyb yuz yillik jumhuriyat tarixiga egaligi, qolaversa, Yevropa Ittifoqiga yaqinligi sabab do‘st Turkiyada davlat, jamiyat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida, turli sohalar bo‘yicha yangilik va innovatsiyalarni tatbiq qilishda muayyan tajriba shakllangan. Turkiyadagi o‘zgarishlarni ko‘rgan inson so‘nggi 20 yillik davrda erishilgan olamshumul taraqqiyotni yaqqol sezadi. Turk iqtisodiyoti ko‘p tarmoqli, o‘z mintaqasida eng yirik, jahonda jadal va izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotlardan biri. Mamlakat — eksportbop mevasabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishda dunyoda yetakchilardan sanaladi. Ko‘plab turk do‘stlarimiz o‘zaro suhbatda bugungi yutuqlarning asoslarini islohotparvar Turgut O‘zalning 80-yillardagi tashabbuslari bilan bog‘laydi va mamlakatimizdagi bugungi islohotlar jarayoni bilan qiyoslaydi. O‘sha davrlarda markazdan boshqaruv o‘rniga bozor mexanizmiga o‘tish, chet el sarmoyasi va texnologiyasini jalb etish, erkin mintaqalar, bojxona va soliq tizimini qulaylashtirish, uyushgan sanoat zonalari (Organize Sanayi Bölgeleri) kabi yangi tushuncha va tadbirlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining tamal toshi bo‘lib xizmat qildi. Iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyat qozonishida Turkiya palatalar va birjalar ittifoqi (TOBB) va mahalliy shoxobchalari, Turkiya eksportyorlari majlisi (TİM), Turk sanoatchilari va ishbilarmonlari assotsiatsiyasi (TÜSİAD), Mustaqil sanoatchilar va ishbilarmonlar assotsiatsiyasi (MÜSİAD), Xalqaro sarmoyadorlar



assotsiatsiyasi (YASED) kabi ishbilarmonlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, maslahat va tavsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlovchi jamoat tashkilotlarining ishtiroki ham katta ahamiyat kasb etdi.

Bugunga kelib yangi industrial mamlakatlar safiga qo‘shilayotgan Turkiya sanoatida avtomobilsozlik, kemasozlik, energetika, metallurgiya, elektronika, kimyo, farmatsevtika, to‘qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat va ko‘nchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yetakchi o‘rinda. So‘nggi yillarda elektronika sanoati, ayniqsa, jadal rivojlandi. Maishiy texnika, tayyor kiyim va to‘qimachilik mahsulotlari, plastmassa va bo‘yoq sanoatida ham Turkiya dunyo yetakchilari qatorida. 2022-yil oxiriga qadar mamlakatda 100 foiz mahalliy asosda elektromobil ishlab chiqarib, sotuvga qo‘yish rejalashtirilgan. Uchuvchisiz uchish apparatlari borasida mamlakat jahondagi kuchli uchlikka kirib ulgurdi va bu yo‘nalishdagi salohiyatini muntazam rivojlantirmoqda. Yaqin kelajakda Turkiya “Mega sanoat mintaqalari” loyihasini hayotga tatbiq etib, yangi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish niyatida. Mamlakatda fuqarolik va harbiy uchoqlar, vertolyot, elektr avtobuslar, samolyot tashuvchi kema, tank va zirhli texnikalar ishlab chiqarish loyihalari kun tartibida turibdi. 2022-yilda 35 milliard AQSH dollari miqdorida daromad keltirishi kutilayotgan turizm ham turk iqtisodiyotining strategik sektorlaridandir.

Albatta, turk birodarlarimizning bunday yutuqlari bizlarni g‘oyat xursand qiladi. Chunki qardoshning muvaffaqiyati qardoshga albatta naf keltiradi.

Turk birodarlarimiz bilan qancha yaqin bo‘lsak, ular erishgan yutuqlarga ham shunchalik yaqinlashamiz. Darvoqe, so‘nggi yillardagi o‘zaro iqtisodiy ko‘rsatkichlarimiz ham mazkur fikrni tasdiqlab turibdi. 2021-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo hajmi qariyb 3,4 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Bu — o‘tgan yilga nisbatan qariyb 60 foizlik o‘sish degani.

Yirik savdo sheriklarimiz orasida 5-o‘rinda bo‘lib kelgan Turkiyaning 2021-yilda 4-o‘ringa ko‘tarilganini ham ta’kidlash zarur. Mamlakatlarimiz savdo aylanmasidagi yana bir ijobiy sifat — eksport va import nisbatlarining mutanosibligi. O‘tgan yili Turkiyadan 1 milliard 698 million dollar hajmda mahsulot xarid qilish barobarida 1 milliard 690 million AQSH dollari miqdorida sotuvlar amalga oshirilgan. Savdo hajmidagi bunday mutanosiblik hamma davlat bilan aloqalarimizda ham



kuzatilavermaydi. Hajm ko'p bo'lgani holda, eksport miqdori kam bo'lgan sheriklarimiz ham mavjud. Shu sababli ham, umumiy savdo hajmi bo'yicha to'rtinchi bo'lsa-da, xorijga eksport miqdori jihatidan Turkiya uchinchi o'rindagi sherigimiz hisoblanadi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-investitsiyaviy munosabatlar taraqqiyotini yorqin aks ettiruvchi yana bir raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman: 2021-yilda mamlakatimizda xorij kapitali asosida ochilgan firmalar soni jihatidan Turkiya yetakchilik qildi. Yil davomida turk sarmoyasi bilan 407 ta yangi tadbirkorlik subyekti faoliyat boshladi va bunday firmalar soni 1882 taga yetdi. Hozirda ushbu ko'rsatkich bo'yicha 3-o'rinda bo'lgan turk firmalari, yuqoridagi tendensiya saqlanib qoladigan bo'lsa, 2022-yil oxiriga borib 2-o'ringa chiqib olishini taxmin qilish qiyin emas.

Mazkur ko'rsatkichlar so'nggi yillarda Turkiya bilan savdo-iqtisodiy sherikligimiz haqiqatan ham yangi bosqichga ko'tarilgani, Turkiya biz uchun strategik iqtisodiy sherikka aylanganini ko'rsatadi. Albatta, bunday natijalarga erishishda turk birodarlarimiz bilan o'rtamizdagi yaqin milliy-madaniy qadriyatlar, o'xshash tafakkur va tushunchalarning ta'siri bilan bir qatorda muhtaram Prezidentimiz tomonidan biz diplomatlar oldiga vazifa qilib qo'yilgan iqtisodiy diplomatiya borasidagi marralarning o'rnini ham katta. "Turk investori bilan ko'rishmagan kun men uchun bekor o'tgan bo'ladi" degan shior ostida elchixonamizda har kuni kamida bir turk investori bilan muzokara o'tkazish, har oy Turkiyaning iqtisodiy salohiyatli viloyatlariga safar qilib, mamlakatimizning savdo-investitsiyaviy salohiyatini targ'ib qilishni an'anaga aylantirdik. Eshigimizni qoqqan har bir ishbilarmon bilan obdan gaplashib, imkoniyati va qobiliyatiga qarab, albatta, O'zbekistonga yo'naltirish so'nggi to'rt yilda asosiy vazifamiz bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T., "Sharq", 1998, 3-12-13 bet.
2. Karim Shoniyozov. "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". T., "Sharq", 2001, 200—266 bet
3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ... T., O'zbekiston, 1997. 51 b.



4. Karimov I.A.. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 39 b.

5. Karimov I.A.. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 331-332 b.

6. Ahmadali Asqarov. “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi”.T., 7. “Universitet”, 2007, 139-158-165 bet.

